

“TIBBIY PSIXOLOGIYA VA PSIXOTERAPIYA” MUTAXASSISLIGI BO`YICHA MAGISTRATURA VA KLINIK ORDINATURAGA MARXAMAT!”

Xurmatli davolash va tibbiy-pedagogika yo`nalishini bitiruvchi talabalari!
Sizlarni “tibbiy psixologiya va psixoterapiya” mutaxassisligi bo`yicha magistratura va klinik ordinaturaga o`qishga taklif qilib qolamiz. Magistratura (3 yil) va klinik ordinatura (2 yil) o`qishga kirgan barcha kurs talabalari “Asab va ruhiyat” ilmiy-tibbiy markazida o`qishadi, ishlashadi va ilmiy izlanishlar olib borishadi.

Ustozimiz professor Zarifboy Ibodullayev rahbarligidagi ushbu markaz Toshkent tibbiyot akademiyasining “Tibbiy psixologiya, neyropsixologiya va psixosomatik tibbiyot” bo`yicha o`quv-uslubiy va ilmiy-metodik markazi hisoblanadi. Markazning barcha xodimlari Toshkent tibbiyot akademiyasini tamomlagan iqtidorli “Tibbiy psixolog va psixoterapevt” lardir.

Markazda “Tibbiy-psixologik diagnostika”, “Neyropsixologiya”, “Nevrologiya” va “Psixosomatik tibbiyot” bo`limlari hamda Yevropa andozalari darajasida jixozlangan psixofiziologiya, nefrofiziologiya, neyropsixologiya, angiovizualizatsiya laboratoriyalari mavjud. Yevropa va Respublikamizning yetuk professor-o`qituvchilari vebinar orqali mahorat darslari, zoom, skype va boshqa turdagi on-line konsultatsiyalari yo`lga qo`yilgan.

Markazda nafaqat xodimlar, balki talabalar ham yuqori tezlikdagi Wi-Fi dan bepul foydalanishlari huquqiga ega. Hurmat bilan yosh tibbiy psixolog-psixoterapevtlar:

Djalilova S. X. ([tel:+998 99 840 99 01](tel:+998998409901)),

Maxamatjanova N. M. ([tel:+998 99 831 61 52](tel:+998998316152)),

Yusupxodjaeva S. T. ([tel:+998 97 424 37 70](tel:+998974243770)),

Gafurova S. Sh. ([tel:+998 94 699 00 39](tel:+998946990039)),

Yunusxodjaeva H. S. ([tel:+99899 833 98 06](tel:+998998339806)).